


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib




Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar- avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **7709,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 9,9 % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **679,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **87,4** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **7030,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **90,4** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **671,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **57,8** %)


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Uyushmagan savdo, mlrd. so'm



HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT


Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **7709,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **9,9 %** ga kamaydi.



Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **91,2 %** va yirik korxonalar hissasiga **8,8 %** to'g'ri keldi.

ENG YUQORI ULUSH


Viloyatda chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani **24,9 %** ulush bilan **1 922,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.



ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Bandixon tumani **0,3 %** ulush bilan **19.0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, **7030,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 9,6 % ga kamaydi. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **91,2 %** ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Muzrabot (98,7 %), Uzun (98,0 %), Qiziriq (97,6 %), Qumqo'rg'on (97,6 %), Boysun (97,2 %), Oltinsoy (96,5 %), Angor (96,4 %) va Sherobod (96,2 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Denov (102,5 %), Sariosiyo (92,2 %) tumanlarida va Termiz shahrida (91,6 %) qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	7709,2	90,1	679,2	87,4	7 030,0	90,4
Termiz shahri	1557,3	91,6	428,8	75,1	1 128,5	100,0
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	369,4	84,5	13	147,1	356,4	83,2
Angor	305,6	88,4	10,9	95,8	294,7	88,2
Bandixon	19,0	86,4	1,2		17,8	81,2
Boysun	330,0	88,0	9,1	64,6	320,9	89,0
Muzrabot	357,0	69,8	4,6	3,0 m.	352,4	69,1
Denov	1922,3	102,5	83,7	197,6	1 838,6	100,3
Jarqo'rg'on	409,9	87,0	19,3	95,2	390,6	86,7
Qumqo'rg'on	348,6	90,7	8,4	70,5	340,2	91,4
Qiziriq	303,8	70,4	7,4	71,3	296,4	70,4
Sariosiyo	347,8	92,2	18	121,5	329,8	91,0
Termiz	109,8	79,1	21,7	73,4	88,1	80,7
Uzun	261,8	86,3	5,2	2,1 p	256,6	85,3
Sherobod	380,4	90,2	14,3	86,4	366,1	90,4
Sho'rchi	686,5	90,0	33,6	152,6	652,9	88,1

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **12,6 %** ga kamaydi va **679,2** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,8 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **7 030.0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **9,6 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,2 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Muzrabot (98,7 %), Uzun (98,0 %), Qiziriq (97,6 %), Qumqo'rg'on (97,6 %), Boysun (97,2 %) va Oltinsoy (96,5 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 8,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (27,5 %), Termiz (19,8%), Bandixon (6,1 %) va Sariosiyo (5,2 %) tumanlarida kuzatildi.



**SURXONDARYO VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON
BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yil yanvar-avgust oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2 919,0 ming so'm (2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan 11,9 % ga kamaydi).


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Termiz shahri (8 613,5 ming so'm), Denov (4 976,3 ming so'm) va Sho'rchi (3 278,2 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	2 919,0	88,1
Termiz sh.	8 613,5	90,1
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	2 084,4	82,5
Angor	2 302,7	86,4
Bandixon	253,2	
Boysun	2 847,2	89,8
Muzrabot	2 514,3	68,4
Denov	4 976,3	97,7
Jarqo'rg'on	1 873,6	85,2
Qumqo'rg'on	1 483,8	96,2
Qiziriq	2 660,1	105,3
Sariosiyo	1 655,6	89,4
Termiz	1 418,9	76,5
Uzun	1 523,0	84,6
Sherobod	1 958,7	88,2
Sho'rchi	3 278,2	88,4

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo

Shu jumladan:

Dehqon bozorlari

Chorva bozorlari

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Uyushmagan savdo

672,1 mlrd. so'm, 100 %

Dehqon bozorlari


367,1 mlrd. so'm,
54,6 %

Chorva bozorlari

305,0 mlrd. so'm,
45,4 %

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **672,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **42,3 %** ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **367,1** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **74,0 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **305,0** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **45,6 %**) tashkil etdi.

Eng yuqori ulushga ega hududlar



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-avgust oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **367,1** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **305,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	672,1	57,7	367,1	74,0	305,0	45,6
Termiz sh.	41,2	93,7	41,2	93,7	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	72,4	63,8	37,1	81,6	35,3	51,9
Angor	26,5	47,1	17,1	58,8	9,4	34,6
Bandixon	0,7	-	0,7	-	-	-
Boysun	49	61,5	23,4	63	25,6	60,2
Muzrabot	93	41,2	20,6	46,7	72,4	39,9
Denov	88,9	70,1	81,8	77,6	7,1	33,2
Jarqo'rg'on	45,5	52,2	26,8	67,4	18,7	39,5
Qumqo'rg'on	56,1	98,5	40,3	132,4	15,8	59,6
Qiziriq	42,8	34,2	8,9	31,9	33,9	34,8
Sariosiyo	67,2	80,1	15,1	61,3	52,1	87,9
Termiz	3,5	34,2	0,5	65,1	3,0	31,9
Uzun	23,3	57,0	15,2	96,9	8,1	32,1
Sherobod	17,9	74,9	16,8	87,1	1,1	24,2
Sho'rchi	44,1	48,9	21,6	66,9	22,5	38,8

**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
DEHQON BOZORLARI**



6,8
mlrd. so'm

Tuzlamalar



148,0
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



21,0
mlrd. so'm

**Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

43,3
mlrd. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



16,5
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

9,5
mlrd. so'm



Tuxum

77,4
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)**

13,0
mlrd. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar**

2020- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **367,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**148,0** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

5,4
mlrd. so'm



Ziravorlar

21,0
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

5,2
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)**

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2020- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **305,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **242,4** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **55,3** mlrd. so'mni, otlar **5,6** mlrd. so'mni, parrandalar **1,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**


2020- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,3 % ni tashkil etib, 103,2 mlrd. so‘mga yetdi va 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 30,7 % ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining 86,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining
o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	103,2	69,3	13,9	84,2	89,3	67,4
Termiz sh.	37,4	78,7	0,2	60,2	37,2	78,8
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	2,3	59,9	-	-	2,3	59,9
Angor	4,3	66,1	-	-	4,3	66,1
Bandixon	0,1	36,8	-	-	0,1	36,8
Boysun	2,8	80,3	-	-	2,8	80,3
Muzrabot	2,4	61,7	-	-	2,4	61,7
Denov	12,7	66,6	-	-	12,7	66,6
Jarqo‘rg‘on	3,5	57,2	-	-	3,5	66,9
Qumqo‘rg‘on	2,9	60,7	-	-	2,9	60,7
Qiziriq	2,3	56,7	-	-	2,3	56,7
Sariosiyo	15,9	92,2	13,3	104,1	2,6	58
Termiz	4,1	34,7	0,4	15,7	3,7	39,9
Uzun	2,4	58,9	-	-	2,4	58,9
Sherobod	5,3	59,5	-	-	5,3	59,7
Sho‘rchi	4,8	64,6	-	-	4,8	64,6

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2019- yil yanvar-avgust oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi 0,2 % dan 0,1 % ga kamaygan.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi 103,2 mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 69,3 %) va mulkchilik shakllari bo'yicha 103,0 mlrd. so'm nodavlat mulkka (99,9 %) hamda 0,2 mlrd. so'm (0,1 %) davlat mulkiga to'g'ri keldi.

	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
Surxondaryo viloyati	103 155,5	100,0	103 014,7	99,9	140,8	0,1
Termiz sh.	37 429,4	36,3	37 288,6	99,6	140,8	0,4
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	2 302,1	2,2	2 302,1	100,0	-	-
Angor	4 300,0	4,2	4 300,0	100,0	-	-
Bandixon	129,8	0,1	129,8	100,0	-	-
Boysun	2 768,7	2,7	2 768,7	100,0	-	-
Muzrabot	2 366,6	2,3	2 366,6	100,0	-	-
Denov	12 692,5	12,3	12 692,5	100,0	-	-
Jarqo'rg'on	3 496,5	3,4	3 496,5	100,0	-	-
Qumqo'rg'on	2 887,2	2,8	2 887,2	100,0	-	-
Qiziriq	2 294,3	2,2	2 294,3	100,0	-	-
Sariosiyo	15 939,9	15,5	15 939,9	100,0	-	-
Termiz	4 057,2	3,9	4 057,2	100,0	-	-
Uzun	2 375,4	2,3	2 375,4	100,0	-	-
Sherobod	5 268,9	5,1	5 268,9	100,0	-	-
Sho'rchi	4 847,0	4,7	4 847,0	100,0	-	-

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 704,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **7,3 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **617,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **107,8 %**), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1 087,5** mlrd. so'mni (**14,1 %** ga kamayish), tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




Eng yuqori ulushga ega hududlar



**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**


Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Bandixon (3,0 m.) va Qumqo'rg'on (179,2 %) , Qiziriq tumanlarida (113,1 %) kuzatildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	1704,8	92,7	617,3	107,8	1087,5	85,9
Termiz sh.	434,4	90,2	118,4	75,9	316	97,1
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	45,8	74,1	31,8	91,6	14	51,7
Angor	51,9	69,7	6	48,0	45,9	74,0
Bandixon	6,7	3,0 m.	5,5	13,3 m.	1,2	63,5
Boysun	12,3	70,8	0,9	129,5	11,4	68,4
Muzrabot	46,8	76,0	41,6	76,8	5,2	70
Denov	427	100,3	82,9	112,6	344,1	97,7
Jarqo'rg'on	173,1	86,3	99,6	103,6	73,5	70,3
Qumqo'rg'on	134,2	179,2	114,4	2,6 p	19,8	65
Qiziriq	66,1	113,1	46,1	161,1	20	66,9
Sariosiyo	102,2	89,8	24,1	3,1 m.	78,1	73,7
Termiz	101,1	80,2	5,4	46,3	95,7	83,6
Uzun	15,5	61,2	4,7	75,4	10,8	56,6
Sherobod	44,3	73,8	18,1	70,1	26,2	76,6
Sho'rchi	43,4	79,4	17,8	89,9	25,6	73,4

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, 1 087,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 14,1 % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 63,8 % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Termiz (94,6 %), Boysun (92,9 %), Angor (88,5 %), Denov (80,6 %) va Sariosio (76,5 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.

